



# SOTSIOLOGIYADA SHAXS TUSHUNCHASI

Bajardi: SXBI 3-kurs 5-guruh talabasi

Maxsumxonova N.B.

# Reja:

- Shaxs va uning xususiyatlari.
- Shaxsning ijtimoiy mavqei, manfaati.
- Shaxsning ijtimoiylashuvi.



- “Jamiyatning isloh qilish va yangilash bo'yicha ko'p qirrali faoliyatimiz markazida inson, suveren O'zbekiston fuqarosi turadi. Islohotlarning mazmuni ayni har bir fuqaro o'z qobiliyatini, o'z iste'dodini namoyon etishga, shaxs sifatida o'zini ko'rsatish imkoniyatida ega bo'lishga qaratilgan degan edilar”, - I.A.Karimov

# Shaxs va uning xususiyatlari.

*Shaxs* – ijtimoiy munosabatlar majmui, jamiyat maxsuli sifatida o'rganiladi. Shaxsiy qarashlarga ega bo'lgan o'zini idora qila oladigan, o'zining kelajagini rejalay oladigan insonga *shaxs* deyiladi. Shu sababli shaxs tushunchasi sotsiologiya fanining ob'ekti va sub'ekti sifatida shu fanning markazida bo'ladi.



# Shaxsning sotsial sifatlari



Shaxsning  
individualligi



Uning shaxslararo  
munosabatlari



Munosabatlar sub'ekti  
sifatida mavjud  
bo'lishi

Shaxsning shaxslararo munosabati shu munosabatlar sistemasining elementlaridan biri ekanligini bildiradi

Shaxsning ijtimoiy munosabatlar sub'ekti sifatida mavjud bo'lishi uning shu munosabatlaridagi sub'ekt sifatidagi maqomi belgilaydi

Shaxsning individualligi undagi xarakter, iroda, dunyoqarash, faoliyat jarayonidagi ba'zi bir xususiyatlar bilan belgilanadi. Undagi individual xususiyatlar uning amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi.

Shaxs sotsial funktsiyasining bajaruvchisi sifatida sotsial rivojlanishning sub'ekti bo'lib qoldi. Shuning uchun halqni tashkil etuvchi shaxslarning ma'lum bir sotsial funktsiyalarni bajarishini hisobga olmasdan turib, sotsial tizimning xarakterini tushunish mumkin emas. Ularning sub'ektiv faoliyati ob'ektiv qonunlarning erkin faoliyatiga yordam berib, bu bilan ijtimoiy rivojlanish jadallashtirishi ham mumkin, yoki ularning faoliyatiga to'sqinlik qilib, rivojlanishni to'xtatib qo'yishi ham mumkin. Shaxsning tizimga ta'siri darajasi esa uning jamiyatda tutgan, uning ijtimoiy mavqei (status)ga bog'liq

# Shaxsning ijtimoiy mavqei, manfaati.

*Shaxsning ijtimoiy mavqei* – bu shaxsning uning huquq va majburiyatlari yoshi, jinsi, kelib chiqishi, kasbi, oilaviy ahvoliga mos ravishda jamiyatda egallagan o'rnidir. Shaxsning ijtimoiy mavqeini ikkiga ajratish mumkin: tug'ma (ijtimoiy kelib chiqishi, millat va b. va egallagan ma'lumotlar, malaka va b.) ijtimoiy mavqelar. Ijtimoiy mavqeni shaxsning birlamchi guruhda uning inson sifatida qanday baholanishiga bog'liq holda tutgan o'rni, ya'ni shaxsiy mavqeidan farqlash lozim.




*Shaxs faoliyati deganda*, uning ichki va tashqi tendentsiyalarining ijtimoiy hayotda namoyon bo'lish xususiyatlariga aytiladi. Ijtimoiy faollik insonning shaxs sifatidagi darajasining asosiy ifodasi bo'lib, uning yuksak qadriyatli ehtiyojlarini qondirish usuli va sifat ko'rsatkichidir. Demak, ijtimoiy faollik shaxsning muhim sifatidir.

Shaxs faolligi uning hayotini boshqarish bilan, kasb tanlashini amalga oshirishi bilan bog'liq bo'ladi. Shu jihatdan shaxs faoliyati sotsiologiyada keng va tor ijtimoiy darajalarda o'rganiladi. Shaxsning bunday darajalarda o'rganilishi metodologik ahamiyat kasb etadi.

***Shaxs manfaati*** – bu individ faoliyatining u yoki bu ehtiyojni qondirish bilan bog'liq yo'nalganligidir. Manfaat shaxsni mavjud sharoitda hayot shaklini o'zgartirish yoki saqlash uchun kurashishga undovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Manfaatlarda asosida kishilarning ehtiyojlari yotadi. Ular sotsial qonunlar talablarini ifodalaydi, buning natijasida manfaat ehtiyojni anglashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, manfaatlar orqali shaxs faoliyatini amalga oshirishi jarayonidagi harakatida aks etadi. Manfaatinig to'rt turi farqlanadi:

1. Munosabat manfaat shaxsning faoliyati jarayonida u yoki bu ob'ektdagi voqea va hodisalarga nisbatan qiziquvchanligini anglatadi. Munosabat manfaat shaxsda shu voqellikka nisbatan e'tiqodining shakllanishidan paydo bo'ladi.

2. Harakat manfaat shaxsning u yoki bu faoliyat sohasida qatnashishida namoyon bo'ladigan manfaat shaxsning faoliyat jarayonining aktivligi yoki passivligini bildiradi. Maqsadli harakat manfaat esa o'z boshlang'ich faoliyati bilan cheklanib qolgan va tor doiradagi harakat manfaatdir.



3. Tayanch manfaat shaxsning boshqa shaxslar, guruhlar bilan uzoq sotsial ta'sirlashuv jarayonida shakllangan va turli shaxslararo, guruhlararo munosabatlarda ma'lum bir faoliyatda yoki ijtimoiy munosabatlarda shakllanadi va sotsial dinamik xususiyatga ega bo'ladi.

4. Yo'nalish manfaat manfaatlar ichida murakkab hisoblanadi, chunki shaxs manfaatlaridan birinchi, ya'ni o'zi uchun muhimini tanlashini talab qiladi. Shaxs manfaatlari ma'lum bir ijtimoiy muhitda shakllanadi va sotsial dinamik xususiyatga ega bo'ladi.



# Shaxsning ijtimoiylashuvi

Shaxsning ijtimoiylashuvi ya'ni ijtimoiy shakllanishi va rivojlanishi bu juda murakkab, ko'p qirrali jarayondir, u ob'ektiv muhit ta'siri ostida ham, maxsus tashkil etilgan va ongli yo'naltirilgan tarbiya ishlari ta'siri ostida ham yuzaga keladi. Sotsiologiya ijtimoiylashuvni: birinchidan, shaxsning insoniyat tomonidan yaratilgan madaniyatni o'zlashtirish mexanizmi sifatida qaraydi. Ijtimoiylashuv shaxsni tarbiyalashga nisbatan kengroq ma'no kasb etadi. Tarbiyalash tashkil etilgan, maqsadli yo'naltirilgan, oldindan programmalashtirilgan sotsial faoliyatdir. Ijtimoiylashuv esa bu faoliyat bilan bir qatorda yana iqtisodiy, siyosiy, kundalik turmush va boshqa shu kabi shaxsga stixiyali ta'sir ko'rsatuvchi ob'ekt faktorlarning ijtimoiylovchi ta'sirini ham o'z ichiga oladi.

Insonning ijtimoiylashuv va tarbiya asosidagi shaxsga xos xususiyatlarining shakllanish jarayonini qator ob'ektiv va sub'ektiv faktorlar bilan asoslash mumkin:



sotsial ehtiyojlar va qiziqishlar


sotsial yo'nalishlar va pozitsiyalar

hulq-atvorni strategik tashkil etish

sotsial aktivlik

- Bozor munosabatlariga o'tish yo'lidagi mulkchilikning turli ko'rinishlarida, tadbirkorlikning rivojlanishida, shuningdek, xalq ma'naviyatining tiklanishida insonga o'z sotsial tabiatining ko'rsatishga, jamiyatning aktiv a'zosi sifatida sotsial funksiyalarini bajarishga yordam beruvchi mutlaqo yangi ijtimoiylashuv tipi uchun ob'ektiv asoslar yuzaga kelmoqda.
- Demak, shaxsning jamiyatga, sotsial jamoalarning turli tiplariga madaniyat elementlari, sotsial norma va qadriyatlarni o'zlashtirish orqali sodir bo'ladigan jarayon **ijtimoiylashuv** deb ataladi

**Shaxsning  
ijtimoiyla  
shuvi  
jarayonini  
ikki  
bosqichga  
ajratish  
mumkin.**



**Sotsial adaptatsiya** individning sotsial sharoitlarga, funktsiyalarga, sotsial normalarga, sotsial guruhlariga, tashkilot va institutlarga, ya'ni muhitga moslashishi bosqichidir.

**Sotsial interiorizatsiya** sotsial norma va qadriyatlarning individning ichki dunyosiga kirishishi jarayonidir. Shaxs sotsial muhitga qorishib ketmaydi, balki unga mustaqil birlik sifatida kiradi.